

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

## O'ZBEKISTONDA OMMAVIY SPORTNI YANADA RIVOJLANTIRISH KONTSEPTSIYASI

*Boyqobilov Akbar Panji o'g'li*

*O'zDJTSU "Menejmenti va sport tadbirlarini tashkil etish" kafedrasи o'qituvchisi*

*E-mail: [akbarboyqobilov61@gmail.com](mailto:akbarboyqobilov61@gmail.com)*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada O'zbekistonda ommaviy sportni yanada rivojlantirish kontseptsiyasi shuningdek, konsepsiya doirasida maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab jismoniy tarbiyaning innovatsion usullarini takomillashtirish tog'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ommaviy sport, sog'lom turmush, aholi, iqtidorli sportchilar, jismoniy tarbiya, jismoniy, dolzarb vazifalar, ommaviy sport, sport tadbirlari, ommaviy axborot vositalari, kontseptsiya, evolutsiya, menejment, lidership, umid nihollari , universiada, kadrlar tayyorlash.

**Kirish.** Mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, aholi, shuningdek, o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga keng jalb etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu aholi salomatligini, qolaversa, yoshlarning kuch va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralash ishlarini tizimli tashkil etish, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar bugun o'z samarasini bermoqda. Buni O'zbekiston yoshlaringning Olimpiya o'yinlari, Juhon championatlari, Osiyo o'yinlari va championatlari, xalqaro musobaqalarda erishayotgan yuksak natijalari misolida ko'rish mumkin.

**Tadqiqot maqsadi.** Shuningdek Prezidentning 11.04.2022 yildagi "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-201-son qarori qabul qilindi.

Quyidagilar ommaviy sportni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

- mahallalarda yoshlarning ommaviy sport bilan shug'ullanishlari uchun moddiy-texnik bazani mustahkamlash va sport inshootlarini zamonaviy sport jihozlari bilan ta'minlash, shuningdek, imkoniyati cheklangan yoshlar uchun tegishli sport infratuzilmasini yaratish;

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

- aholining keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ular o‘rtasida ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish orqali yoshlarning ommaviy sportdagi ulushini oshirish;
- ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanuvchi oilalarga mahallalar va istirohat bog‘larida sharoit yaratish va oilaviy sportni rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish;
- ommaviy sport tadbirlari davomida o‘quvchilari g‘olib va sovrindor bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari va sport-ta’lim muassasalarining trenerlari mehnatini munosib rag‘batlantirishva ularning faoliyat olib borishi uchun sharoit yaratish.

Prezidentimizning 2020 yil 30 oktyabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni va O‘zbekistonda Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13-fevraldagagi “2019-2023 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi, 2021 yil 5 noyabrdagi “Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va “Workout” sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari mamlakatimizda jismoniy tarbiya va ommaviy sportning rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Respublikamizda jahon andozalariga mos muhtasham ochiq va yopiq sport inshootlarining barpo etilgani o‘quvchi va talaba-yoshlar o‘rtasida ommaviy sport musobaqalarini yanada ommallashtirishga qo‘l keldi. Jumladan yoshlar o‘rtasida uch tizimli ya’ni "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va “Universiada” sport o‘yinlarini o‘tkazish an’anaga aylandi. Bu ommaviy sport musobaqalari yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda o‘ziga xos mahorat maktabiga aylandi.

Mamlakatimizda ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, jismoniy va ma’naviy sog‘lomlikning asosi ekanini targ‘ib qilish, yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o‘z qobiliyat va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun zarur sharoit yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni izlab topish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish bugungi kunda muhim va dolzarb vazifa sifatida belgilandi.

**Tadqiqotni tashkil qilish maqsadi.** Shuningdek, konsepsiya doirasida maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab jismoniy tarbiyaning innovatsion usullari takomillashtiriladi.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetiga talabalarni tanlashda ularning trenerlik kasbida ishslash ishtiyoyqiga e’tibor beriladi

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Jismoniy tarbiya sohasidagi kadrlar Sport Management (sportni boshqarish), Sport Leadership (sportga rahbarlik qilish), Sport Administration (sport ma'muriyatichiligi) yo'naliishlari bo'yicha tajriba orttiradi.

SPORTSUZ axborot portali hamda iSPORT sport ilovasi yaratiladi.

Sportchilar faoliyatini ro'yxatga olish va hisobga olish bo'yicha – "Skm-sporsmen", trenerlarni ma'lumot bazasini ta'minlash bo'yicha – "Skm-trener" va respublikaning jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlarini pasportlashtirishni ta'minlash bo'yicha – "Skm-sportinshoot" axborot tizimlari tashkil etiladi.

**Tadqiqot natijalari.** Hujjat bilan Mahallalarda yoshlar o'rtasida ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

2022 yildan boshlab har yili an'anaviy tarzda 30 iyun - O'zbekiston Respublikasi yoshlari kuni hamda dekabr oyida o'tkaziladigan "Yoshlar forumi" doirasida sportning futbol, mini-futbol, voleybol, engil atletika, shaxmat, shashka, stol tennisi, stritbol, vorkaut turlari bo'yicha besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish tizimi joriy etiladi:

- birinchi bosqichda - ko'chalararo mahalla musobaqalari;
- ikkinchi bosqichda - mahallalararo sektor musobaqalari;
- uchinchi bosqichda - sektor musobaqalarida g'olib bo'lgan mahalla jamoalari o'rtasida tuman (shahar) musobaqalari;
- to'rtinchi bosqichda - tuman (shahar) musobaqalari g'olib mahalla jamoalari o'rtasida viloyat musobaqalari;
- beshinchi bosqichda - viloyat musobaqalarida g'olib bo'lgan mahalla jamoalari o'rtasida respublika (final) musobaqalari.

2023 yil 1 martdan boshlab olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo'yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarini o'tkaziladi

Yuqorida ko'rsatilgan musobaqalar davomida g'oliblarni tayyorlagan maktablarning jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari va sport-ta'lim muassasalarining trenerlari malaka attestatsiyasiga jalb etilmaydi va ularga quyidagi malaka toifalari to'g'ridan-to'g'ri beriladi:

- tuman (shahar) bosqichi musobaqalarida g'olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun - ikkinchi malaka toifasi;
- viloyat bosqichi musobaqalarida g'olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun - birinchi malaka toifasi;
- respublika (final) bosqichida g'olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun - oliy malaka toifasi qaror bilan Konsepsiyaniga amalga oshirish chora-tadbirlar dasturi

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

tasdiqlandi. Dastur doirasida “Jismoniy tarbiya va sport” ixtisoslashtirilgan nashriyot markazi tashkil etiladi.

Fuqarolar o‘z turar joylariga yaqinda joylashgan obektlarning (ta’lim, tibbiyot, sport va dam olish muassasalari) jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish inshootlaridan foydalanishini ta’minalash yo‘li bilan ularning jismoniy faolligi oshiriladi.

**Xulosa.** Xulosa qismida aytish joizki, ushbu kontseptsiya asosan fuqarolar, hukumat muassisalarining, shaxsiy mulkchilik va xususiy firmalar, ommaviy sportga qiziquvchi navlarga yo‘nalib olib borish orqali bajarilishi kerak. Ommaviy sportni yanada rivojlantirish kontseptsiyasi yoshlar va oliygoh o‘quvchilar, jismoniy faolligi yo‘qolanlar, kasallarning davolashlarida o‘rnatishlar bilan bog‘liq tadbirlarni o‘tkazish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu kontseptsiya sport faoliyatini o‘z mavzusida ko‘plab yonlardan rag‘batlantirishga xizmat qiladi va ommaviy hayotimizni sifatliroq qilishga yordam beradi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2019-2023 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommoviy sportni rivojlantirish konsepsiysi” ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 118-sonli Qarori/ 13.02.2019
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori. 2020-yil 3-noyabr. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Jurayev, Vohidjon, and Yoqubjon Ermatov. "BASICS OF ADJUSTING PHYSICAL EXERCISES FOR THE AGE OF STUDENTS WHEN INTRODUCING A HEALTHY LIFESTYLE TO STUDENTS IN THE GENERAL SECONDARY EDUCATION SYSTEM." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.5 (2023): 1042-1045.
4. Жураев, Вохиджон Мухаммедович. "СПОРЧИЛАРНИНГ ДАЪВОГАРЛИК ДАРАЖАСИ ВА ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРИНИНГ ПСИХОЛГИК ХУСУСИЯТЛАРИ." Academic research in educational sciences 4.TMA Conference (2023): 894-900.
5. Sultonov, Usmon Ibragimovich. "METHOD OF CONTROLLING THE TRAINING PROCESS OF LONG-DISTANCE RUNNERS." Eurasian Journal of Academic Research 2.3 (2022): 132-137.
6. Ibragimovich, Sultonov Usmon. "DYNAMICS OF MORPHOLOGICAL INDICATORS IN THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF LONG-DISTANCE RUNNING." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE &

**Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari**

INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.01 (2022): 129-132.

7. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "The importance of functional training in the athlete training system." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 261-264.

8. Toxirjonovich, Arabboyev Qaxramon, et al. "THE ROLE OF SPORT IN PEOPLE'S HEALTH." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).

9. Arabboyev, Q. T. "Sportchilarni tayyorlashda funksional tayyorgarlikning ahamiyati: 10.53885/edinres. 2022.75. 29.012 QT Arabboyev." Научно-практическая конференция. 2022.

10. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "SPECIFIC FEATURES OF THE APPROACH TO STUDENTS IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS ON THE BASIS OF THE PRINCIPLE OF INDIVIDUALIZATION." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 269-273.

11. Араббоев, К. Т. "Особенности адаптации студентов высшей физкультурно-педагогической школы к учебной и спортивной деятельности." Педагогические науки 5 (2011): 128-131.

12. MURATOVA, GULIYA RIMOVNA, RUZEL MULLAKHMETOVICH KHABIBULLIN, and AYGUL URALOVNA BAKIROVA. "COORDINATION ABILITIES OF POWERLIFTERS." Будущее науки-2019. 2019.

13. Rashitovna, Muratova Gulnara. "Problems of Using the Technology of Integrated Modular Training of Students in Physical Education Classes at The University." Genius Repository 26 (2023): 104-106.

14. Муратова, Г. Р. "ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ УРОКА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ." Science Promotion 4.1 (2023): 30-35.

15. Муратова, КГПИ Г. "АКТИВИЗАЦИЯ ДВИГАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ ПУТЬЁМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОРЕВНОВАТЕЛЬНО-ИГРОВОГО МЕТОДА." Science Promotion 4.1 (2023): 24-29.

16. Муратова, Гулнара, and Вагаршак Данелян. "ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНО-МАССОВЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В СРЕДНИХ

**Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari**

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ." Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2.22 (2023): 23-27.

17. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir, Gafurov Abduvohid Makhmudovich, and Yuldasheva Jamilakhan Mukhtorovna. "The role of gymnastics in the educational process." Open Access Repository 8.12 (2022): 5-8.

18. Mukhtorovna, Yuldasheva Jamilakhan. "EFFECTIVE WAYS OF MANAGING THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF SPORTS." Open Access Repository 8.12 (2022): 693-697.

19. УПРАЖНЕНИЯХ, САМОКОНТРОЛЬ В. ФИЗИШЕСКИХ. "JISMONIY YUKLAMALARDA O'ZINI-O'ZI NAZORAT." НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021 1: 722.

20. Умарова, Ф. А., З. А. Умарова, and А. А. Умаров. "Повышение эффективности обучения за счет использования электронного обучения в классе." Библиотека в пространстве современной культуры. 2020.

21. Умаров, АА-К. "СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПРЕДСТАРТОВОЙ МЫШЕЧНОЙ РАБОТЫ СПОРТСМЕНА КАК СПОСОБ ПОДГОТОВКИ К УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНЫМ ЗАНЯТИЯМ И СОРЕВНОВАНИЯМ." ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ В СИСТЕМЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ. 2021.

22. Artikovna, Abdurahmonova Malohatkhan. "USE OF INTERACTIVE METHODS AND THEIR EFFECTIVENESS IN TEACHING CHEMISTRY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.2 (2023): 507-510.

23. Умаров, Абдусамат Абдумаликович. "Феноменологическое Поле Гендерной Идентичности Спортсменок." Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 3.12 (2022): 15-18.